

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»
Termiz davlat universiteti
Oliy ishlar bo'yicha prorektor
prof. R.N.To'rayev
06 2024 yil

«Kimyo» ta'lim yo'nalishi talabalarining pedagogik amaliyot

DASTURI

Billim sohasi: 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi: 530000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60530100 – Kimyo (turlari bo'yicha)

Termiz-2024

Mazkur dasturda amaliyotchi-talabalarning pedagogik-psixologik amaliyotida uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlari taqvimini o'rganish, dars, darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida tashkil etish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini muvafaqqiyatli qo'llash, shuningdek ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy shakllari, ularni tahlil qilish, tashkil etish va o'tkazish bo'yicha yo'l-yo'riqlar, hamda baholashda qo'llaniladigan reyting tizimi bayon qilingan.

Dastur O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun talablari asosida ishlab chiqilgan hamda Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-noyabrda 12-2020-son qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik ta'lim muassasalarida (harbiy, maxsus oliy ta'lim muassasalaridan tashqari) talabalar tomonidan tanishtiruv va malakaviy amaliyotni, shuningdek stajirovkani o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarorga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarga asosan ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: Suyunov J.R. - Analitik kimyo kafedrasida katta o'qituvchisi PhD

Zikirov S.A. - Analitik kimyo kafedrasida o'qituvchisi


Narmanova F.S. - Analitik kimyo kafedrasida o'qituvchisi

Boltayev N.S. - Analitik kimyo kafedrasida o'qituvchisi


Taqrizchilar: TerDPI o'quv ishlari bo'yicha prorektori, texnika fanlari Bozorov L.U. bo'yicha falsafa doktori.

Normurodov B.A. TerDU, Analitik kimyo kafedrasida mudiri, texnika fanlari doktori.

Amaliyot dasturi Analitik kimyo kafedrasining 2024-yil "24" 06 dagi 28-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya yetilgan.

Kafedra mudiri:  Normurodov B.A. Amaliyot dasturi Kimyo fakulteti Kengashining 2024-yil "25" 06 dagi 28-sonli majlisida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Fakultet kengashi raisi:  Turayev X.X. Amaliyot dasturi Termiz davlat universiteti o'quv metodik Kengashining 2024-yil "26" 06 dagi 28-sonli majlisida tasdiqlangan.

O'quv metodik boshqarma boshlig'i:  Ibragimov A. Amaliyot dasturi Termiz davlat universiteti o'quv metodik Kengashining 2024-yil "26" 06 dagi 28-sonli majlisida tasdiqlangan.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va Oliy talim haqidagi konsepsiyasi yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalashni nazarda tutadi. Chunki, bugungi kunda zamonaviy yetuk mutaxassislar nafaqat o'z sohalaridagi ilmiy bilimlarni mukammal egallashi, balki har tomonlama barkamol taraqqiy etgan inson bo'lib yetishishi davr talabidir. Bu esa mutaxassislarning ilmiy dunyo qarashi keng, hayotning turli qirralari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi orqali amalga oshiriladi. Inson kamoloti uning matematika, informatika va axborot texnologiyalari haqidagi umumiy tasavvurlar, uning rivojlanish qonunlaridan nechog'lik xabardorligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Chuning uchun yosh mutaxassislarimiz hozirgi zamon informatikasining asosiy g'oyalari, uslublari va natijalari haqida rivojlanish jarayonini bilishi zarur.

Talim psixologiyasi xabar berishicha, bilimlar olinadigan, egallanadigan narsa - predmet emas, balki zaxmat, riyozat chekib o'zlashtirishni talab etadigan aqliy mehnat jarayonidir. Aqliy mehnatni tashkil etish, boshqarish va uning samaradorligini oshirishda, yoshlarda o'z faniga qiziqish uygotishda matematika o'qituvchisining roli juda katta. Shu bois, talim-tarbiya tizimida ilm-fan taraqqiyotidan xabar berish yoshlar dunyoqarashining takomillashuvida ijobiy va samarali natijalar berishiga shak-shubha yo'q, desa bo'ladi. Chunki, mamlakat taraqqiyoti bevosita iqtidori, istedodli yoshlar dunyoqarashi, ularning bilim darajasi, aql-idrokiga bog'liqdir. Bu borada bo'lg'usi mutaxassislarning pedagogik amaliyoti keng imkoniyatlarga ega. Pedagogik amaliyot maqsadi talabning kimyo, noorganik kimyo va organik kimyo fanlaridan, qolaversa pedagogika va psixologiya hamda gigiyena fanidan egallagan bilimlarini amalda qo'llay bilish, bo'lg'usi mutaxassisni o'rta ta'lim muassasalarini va uning yangi tiplari akademik litsey va kasb-hunar maktablarida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Pedagogik-psixologik amaliyot maqsadi:

- talabalarni darsni tashkil etish va olib borish, o'quv materialini bayon etish, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, ularning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash, turli tipdagi darslarni olib borishda zarur bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish;
 - talabalarni dars jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish vazifalarini bir butunlikda qo'yish va amalga oshira bilishga o'rgatish;
 - ularni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va olib borishga o'rgatish;
 - pedagogik tajribani tahlil etish, ilg'orlar tajribalarini umumlashtirish, uni o'z faoliyatiga tadbir etish malakasini shakllantirish;
 - talabalarda o'z ustida ishlash, mustaqil ta'lim olish, zarur adabiyotlarni tanlay bilish va o'rganish ko'nikmasini hosil qilish.
- Pedagogik amaliyot talabalarning umumpedagogik, metodik va kimyo, noorganik, organik kimyo fanlaridan olgan nazariy bilim, malaka va ko'nikmalariga asoslanadi.
- Pedagogik amaliyot davomida talaba:
- kimyo, noorganik kimyo, organik kimyo fanidan turli tip va turdagi darslarni tashkil etish va ularda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish;
 - o'zi va kursdoshlari, shuningdek, o'qituvchilar darslarini tahlil qilish;
 - o'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarini reyting usuli asosida baholash;

- Kimyo, noorganik kimyo, organik kimyo fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish;
- ma'naviy- ma'rifiy ishlarni tashkil etish va olib borish;
- ta'limning texnikaviy vositalaridan foydalanish;
- sinf rahbari sifatida ish olib borish;
- sinf jurnalini yuritish;
- dars reja-konспекти, tematik, yillik va sh.k. rejalarni tuzish malaka va ko'nikmalarini egallashi lozim.

Pedagogik amaliyot 2 oy davom etadi, barcha tayyorgarlik ishlari amaliyot boshlanishidan oldin va sinov tadbirlari yoki undan so'ng tashkil etiladi. Bu esa, amaliyot maqsadlariga to'liq, erishishga ko'maklashadi.

Pedagogik-psixologik amaliyotning vazifalari

1. Amaliyotchi-talabalarining oliy o'quv yurtida egallagan bilimlarini mustahkamlash va o'quvchi-talabalar bilan olib boriladigan dars, darsdan tashqari ta'limiy-tarbiyaviy ishlar amaliyotida tadbir etishni o'rgatish.
2. Amaliyotchi – talabalarda uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida talimiy-tarbiyaviy ishlar tizimini har tomonlama o'rganish, dars, darsdan tashqari turli ko'rinishdagi ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni kuzatish va tahlil, o'quv-malakalarni takomillashtirish.
3. Talabalarda dars, darsdan tashqari ta'limiy-tarbiyaviy ish turlarini maqsadga muvofiq rejalashtira olish o'quv malakalarini shakllantirish.
4. O'quv dasturlari va taqvim - rejalarga asosan uslubiy-ma'naviy ishlarida metodik yordam uyushtirish.
5. Talabalarni sinf rahbari yordamchisi sifatida, sinf rahbari vazifalarini bajarishga, o'quvchilar bilan alohida – alohida va ommaviy tarzda darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib borishga o'rgatish.
6. Talabalarni ta'limiy-tarbiyaviy ishlar sohasidagi ilg'or pedagogik tajribani o'rganishga jalb etish.
7. Talabalarda pedagogik faoliyatga ijodiy, ilmiy va amaliy yondashish munosabatlarni, ijtimoiy pedagogik faollikni tarkib toptirish.
8. Talabalarda milliy va umuminsoniy tarbiya muammolarini hal qilishga imkon beradigan pedagogik qobiliyatni takomillashtirish, o'quvchi shaxsi va uning tarbiyasiga bo'lgan intilishlarini kuchaytirish.
9. Erkin va mustaqil fikrlovchi, o'z ustida muntazam ishlovchi shaxs bo'lish ko'nikmasini qaror toptirish.
10. Hozirgi zamon uzluksiz ta'lim - tarbiya tizimidagi pedagogik faoliyatga ijodiy, tanqidiy yondashishni shakllantirish.
11. Amaliyot ob'ektlaridagi o'qitishning yangi texnologiyasi bilan yaqindan tanishish.
12. Talabalarga kasbga bo'lgan qiziqish va muhabbat sifatlarini shakllantirish.
13. Amaliyotchi talabalarda kasbga qiziqishni va muhabbatni shakllantirish asosida pedagogik faoliyatga tadbirqotchilik va ijodiy yondoshishni qaror toptirish.

Pedagogik-psixologik amaliyot davrida amaliyotchi talabalar quyidagilarni bilishlari shart:

1. Amaliyot ob'ekti (uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari) hususiyatini, o'quvchilarning yoshi va individual hususiyatlarini hisobga olish.
2. Dastur mavzularini o'tish jarayonida uning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor berishi.
3. Fan bo'yicha o'quv va sinfdan tashqari pedagogik faoliyat rejalarning mazmunini anglashi.
4. O'quv jarayonida turli zamonaviy metodlarni tadbir etishni.
5. O'quv – tarbiya va ma'naviyat ishlari mazmun – mohiyatini bilishi va tahlil qilishi.
6. Amaliyot obektlari jamoasi bilan, ayniqsa fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari bilan hamkorlik qilishi.
7. Fanga, jamoaga, o'qituvchilarga o'quvchilarning munosabatlarini bilish uchun monitoring usullarini anglab etishi shart.

Pedagogik-psixologik amaliyotni tashkil etishning asosiy tamoyillari

1. Pedagogik amaliyotning DTsga muvofiqligi.
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun talablari asosida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida»gi Nizomga mosligi.
3. Pedagogik amaliyotning Pedagogika universiteti o'quv rejalari va amaliyot dasturlariga muvofiqligi.
4. Pedagogik amaliyotda nazariya va amaliyot birligi.
5. Pedagogik amaliyot natijalari muhokamasida oshkoralik.
6. Pedagogik amaliyot natijalarini baholashda amaliyot talim muassasasi rahbarlarining obyektivligi.

Pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy pedagogik ko'nikma asoslarini egallash:

1. Amaliyotchi – talabalar dars jarayonida mustaqil ijod etish va izlanish lozimligi.
2. Amaliyotchi – talaba va o'quvchining ta'lim jarayonida hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish.
3. Pedagogik faoliyatni joriy va istiqbolli rejalashtirish va uni amalga oshirish.
4. O'quvchilar jamoasining ijtimoiy-psixologik hususiyatlarining hisobga olgan holda o'quv-tarbiyaviy vazifalarini belgilash.
5. O'quv – tarbiyaviy ishlarni kuzatish va tashkil qilish, unga tuzatishlar kiritish.
6. O'quvchilar, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar va bola tarbiyasida ishtirok qiluvchi boshqa shaxslar bilan hamkorlik qilish. Amaliyotchi – talaba faoliyati mazmunining tarkibiy bosqichlari.

1. Tashkiliy ishlar:

1. Uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quv-tarbiyaviy ishlar tizimi, pedagogik jamoa bilan tanishish.
2. O'quv muassasasining moddiy – texnika ta'minoti va adabiyotlar bilan

Pedagogik amaliyot davridagi ishlarini baholash mezonlari
Pedagogik amaliyot davrida, amaliyotchi-talabalar bilimni baholash reytingi o'quv rejasidagi fanning xususiyatidan kelib chiqib quyidagicha taqsimlanadi:

- “Pedagogika” fanidan – 2-5 ball
- “Psixologiya” fanidan – 2-5 ball
- “Gigiena” fanidan - 2-5 -ball
- “Kimyo” – 2-5 ball

Reyting jadvali

Kimyo fanini o'qitishda maksimal 5 ball yig'ishi kerak bo'ladi va ular quyidagicha taqsimlanadi:

Sentabr					Oktabr						
1 hafta	2 hafta	3 hafta	4 hafta	1 hafta	2 hafta	3 hafta	4 hafta	1 hafta	2 hafta	3 hafta	4 hafta
Pedagogik amaliyotga bog'liq ishlar va pedagogik amaliyot hujjatlarini rasmiylashtirish	Mutaxassislik fan darslarida darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari ishlar va ekskursiyalar o'tkazish metodikasi bilan tanishish va tuzish. Darslarni kuzatish va tahlil qilish.	Pedagogik texnologiyaga asoslangan dars ishlanmasini tuzish (konsept tuzish) va o'tkazish. Darslarni o'tkazish. Amaliyotchilar tomonidan «Fan yangiliklari» ruki ostida domiy faoliyat ko'rsatuvchi metodik – seminar o'tkazish. Sinov darslarini o'tkazish. Sinov darslarini tuzish.	O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va o'zlashtirish past bo'lgan o'quvchilar bilan mustaqil ishlar olib borish. Pedagogik texnologiyaga asoslangan dars ishlanmasini tuzish (konsept tuzish) va ko'rganmali qurollar yasash.	Amaliyotchilar tomonidan «Fan yangiliklari» ruki ostida domiy faoliyat ko'rsatuvchi metodik – seminar o'tkazish. Sinov darslarini o'tkazish. Mutaxassislik fan haftaligiga tayyorlangan ko'rsatuvchi metodik – seminar o'tkazish. Sinov darslarini o'tkazish. Sinov darslarini tuzish.	Mustaqil mutaxassislik fan darslarini sinfdan tashqari o'qitish, darslarni o'titish va tahlil qilish. Mutaxassislik fan darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish, slaydlar tayyorlash va ko'rganmali qurollardan foydalanish.	Sinfdan tashqari ishlar (to'g'ri tashqari ishlar, kimyo bo'yicha tadbirlar o'tkazish) o'lipdalarga tayyorlash, kimyo bo'yicha tadbirlar o'tkazish) Sinfdan tashqari ishlar (to'g'ri tashqari ishlar, kimyo bo'yicha tadbirlar o'tkazish) o'lipdalarga tayyorlash, kimyo bo'yicha tadbirlar o'tkazish) o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va o'zlashtirish past bo'lgan o'quvchilar bilan vakka tartibda ishlar olib borish.	O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va o'zlashtirish past bo'lgan o'quvchilar bilan vakka tartibda ishlar olib borish.	O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va o'zlashtirish past bo'lgan o'quvchilar bilan vakka tartibda ishlar olib borish.	O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va o'zlashtirish past bo'lgan o'quvchilar bilan vakka tartibda ishlar olib borish.	O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va o'zlashtirish past bo'lgan o'quvchilar bilan vakka tartibda ishlar olib borish.	O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va o'zlashtirish past bo'lgan o'quvchilar bilan vakka tartibda ishlar olib borish.
2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5

Kimyo fanidan baholash mezonlari

Talaba yuqoridagilar asosida maksimal 5 ball yig'adi.

- «5» - 90 ball dan – 100 ballgacha
- «4» - 70 ball dan – 89 ballgacha
- «3» - 60 ball dan – 70 ballgacha
- «2» - 59 ball dan – 36 ballgacha «qoniqarsiz»

ta minlanganlik darajasi bilan tanishish.
3. O'quv muassasasidagi ma'naviy – tarbiyaviy ish rejalari bilan tanishish.
4. Turkum fanlar o'quv – uslubiy hujjatlarini yuritilishi bilan tanishish,

II O'quv - uslubiy ishlar:

- 1) Kimyo va boshqa fanlar o'qituvchilarining darslarini kuzatish va tahlil qilish.
- 2) Darslarni texnologik xaritasini ishlab chiqish.
- 3) O'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish.
- 4) Sinf, sinfdan tashqari mashg'ulotlar rejasini va matnini tuzish.
- 5) O'quvchilar bilimlarini baholash va nazorat qilish shakllarini o'rganish.
- 6) O'tkaziladigan pedagogik amaliyot kundalik daftarini muntazam yoritib borish.

- 7) Dars mavzulariga didaktik materiallarni tayyorlash.
- 8) Mavzular bo'yicha ilmiy, uslubiy adabiyotlarni o'rganish.
- 9) O'quv jarayonini tashkil etishda kompyuter texnologiyasi va internet tizimidan samarali foydalanish.

- 10) Malakaviy pedagogik amaliyot yuzasidan hisobot xujjatlarini tayyorlash.
- 11) «Pedagogik amaliyot menga nima berdi?» mavzusida matbuotda maqolalar chiqarish.
- 12) Pedagogik amaliyot yuzasidan uslubiy pedagogik kengashda ma'ruza bilan chiqish.

III Ma'naviy-tarbiyaviy ishlar:

1. O'quv muassasasida sinf rahbari ishini o'rganish, tadbirlar o'tkazish.
2. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatish.
3. Tarbiyasi bo'sh o'quvchilar bilan odob – axloq mavzusida suhbat o'tkazish.
4. «O'zbekiston yoshlar ittifoqi» faollari va yetakchilari faoliyatini o'rganish, qo'shimchalar kiritish.
5. O'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha rahbar muovini faoliyatini o'rganish va birgalikda ish yuritish.
6. «Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish» mavzusida davra suhbatlari o'tkazish.
7. Ilmiy mavzuda konferentsiya tashkil qilish.

Pedagogik - psixologik amaliyot jarayonida amaliyotchi – talabalarda shakllanadigan ko'nikmalar

1. Yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish.
2. O'quv-uslubiy ko'rganmali jihozlarni har bir mavzu uchun tayyorlash zaruriyatini tushunish.
3. O'quvchilar bilan muntazam tarbiyaviy ishlarni olib borish.
4. Sinf rahbari vazifalarini bajarishga tayyor bo'lish.
5. Mavzuni boshqa fanlar bilan va mazkur fanda o'tilgan hamda o'tilishi lozim bo'lgan mavzular bilan bog'lash.
6. Darsni jihozlash (texnik vositalar, ko'rganmali jihozlar, javdallar, slaydlar, tarqatma materiallar va hokazolar).
7. O'quvchilarda doimo erkin, mustaqil fikrlashni va mustaqil mulohaza yuritishni shakllantirish.

PEDAGOGIK TAYORGARLIK – 2-5 ball.

1.1. Maqsad:

Pedagogika bo'yicha bakalavriyat ta'lim yo'nalishi IV kurs talabalarining olib boradigan pedagogik amaliyoti uchun mo'ljallangan. Mazkur dastur yangi o'quv rejalarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, unda amaliyotchilarning kasbiy moslashuvini shakllantirishda pedagogika fanidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan zaruriy kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar tizimi ajratilgan o'quv yuklamasi asosida yoritilgan.

1.2. Pedagogik vazifalar:

Pedagogik amaliyot talabalarining uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, umumiy o'rta ta'limi muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlariga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.

Pedagogik amaliyotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda kasbiy ishonch va barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish;
- talabalarining pedagogik-psixologik fanlar hamda maxsus fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash;
- bo'lajak o'qituvchilarni amaliy ko'nikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiy psixologik-pedagogik qonuniyatlarini qo'llash malakalari bilan ta'minlash;
- talabalarni uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi o'quv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy ahvoli, ilg'or pedagogik tajribalari bilan tanishtirish;
- o'qituvchining muhim kasbiy va shaxsiy xislatlarini rivojlantirish;
- talabalarda pedagogik kasb va mehnatga hurmat va muhabbat uyg'otish;
- talabalarining pedagogik-psixologik faoliyatda bevosita qatnashishlariga erishish;
- talabalarni uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini pedagogik kasbiga yo'naltirish va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga o'rgatish;
- pedagogik faoliyatning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini joriy va istiqbolli rejalashtirishga o'rgatish.

Amaliyot davrida talabalar asta-sekin tayyorgarlikning har bir bosqichidagi o'qitishning maqsadi va mazmuni hamda talabalar faoliyati jarayonida mustaqillik darajasi va o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini bilan tanishadilar.

Oliy ta'lim muassasasida o'tkaziladigan pedagogik amaliyot "Umumiy psixologiya", "Yoshlar fiziologiyasi va maktab gigienasi", "Pedagogika", "Pedagogik mahorat" va "Pedagogik texnologiya" kabi pedagogik-psixologik toifadagi fanlardan amaliyot davrida foydalanishni nazarda tutadi.

4 - kurs talabalarini pedagogik amaliyot davrida quyidagilarni bajaradi:

- 1-2 darsning va tarbiyaviy tadbirning mustaqil pedagogik - psixologik tahlili;
- sinf jamoasining pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish;
- guruhda pedagogik-psixologik iqlimni o'rganish;

- uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda amaliyotchi darslarini pedagogik-psixologik xulosalar bilan tahlil qilish;

- ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o'rganish;
- materiallarni yig'ish va ular asosida o'quvchilarga hamda guruh (sinf)ga pedagogik-psixologik tavsifnoma yozish;
- amaliyot bo'yicha hisobot tuzish va pedagogik amaliyot davridagi hujjatlarni rasmiylashtirish.

1.3. Pedagogik tayorgarlik reyting jadvali:

Maksimal ball – 5 ball

Saralash ball - 3 ball

«a'lo»	5	«yaxshi»	4	«qoniqarli»	3	«qoniqarsiz»	2
--------	---	----------	---	-------------	---	--------------	---

1.4. Pedagogik amaliyotning ta'limiy xarakteri:

Pedagogik amaliyot talabalarining nazariy tayyorgarligini boyitadi, olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga, amaliy vazifalarni hal qilish uchun o'rganilayotgan fanning nazariy qoidalaridan foydalanishga imkon beradi.

Pedagogik amaliyotning ta'limiy xarakteri samarasi ko'pincha oliy o'quv yurti va maktabning o'zaro aloqasi bilan, olimlar, metodistlar va o'quv yurti pedagoglari jamoasi hamkorligi hamda ular mehnatida fan va ilg'or pedagogik tajriba yutuqlarining qo'llanish darajasi bilan belgilanadi.

1.5. Pedagogik amaliyotning rivojlantiruvchi xarakteri:

Pedagogik amaliyot talabalarining ruhiy adolat va xususiyatlarining rivojlanishiga yordam beradi; o'qituvchining o'z faoliyatiga nisbatan diqqatini oshirishga, bu esa o'zida kasbiy munosabatlarni jakkantirishga, ta'limiy yoki tarbiyaviy tadbirlarni ma'lum mantiqqa, tizimga solishga intilishini kuchaytirish bilan bir qatorda atrofidagi kishilarga nisbatan ularda xotira, tafakkur, tasavvur, irodani rivojlantirishga, o'z fanida uchrab turadigan turli terminlarni, formulalarni, tenglamalarni, tushunchalarni chuqurroq tahlil qilishga, o'z faniga ijodiy yondashishga olib keladi.

Pedagogik amaliyot davomida talabalar ba'zi turdagi tadqiqot ishlarini, jumladan: darsni psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilish, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish, sinf jamoasini va o'quvchi shaxsini jamul-jam tarzda o'rganish, o'quvchilar bilan tajriba ishlarini olib borish, o'zidan katta hamkasabalarining, mohir pedagoglarning ishlarini bevosita kuzatish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishni ham ko'zda tutadi.

1.6. Talabalar pedagogik amaliyotning asosiy vazifalari:

- Bo'lajak o'qituvchilarda o'z kasbiga oid kasbiy sifatlar: malaka, ko'nikma va mahoratni shakllantirish, pedagogik bilimlarni egallash uchun ehtiyoj tug'dirish;
- o'qituvchilik kasbiga barqaror qiziqish va muhabbat ruhini tarbiyalash;
- pedagogik faoliyatga ijodiy, izlanuvchan yondashishga o'rganish;
- uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining hozirgi ahvoli bilan yaqindan tanishtirish, ilg'or pedagogik tajribani o'rganishga, tahlil qilishga imkoniyat yaratish;

- shahar va qishloq sharoitlarida o'qituvchi, tarbiyachi va sinf rahbariga xos mahoratlarni egallash;

- o'quv yurti pedagogik jamoasi, «O'zbekiston yoshlar ittifoqi» faoliyati bilan tanishish va o'quv-tarbiya jarayonini moddiy jihatdan ta'minlashda yordam ko'rsatish;

- o'quv yurti, ayrim o'qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilarning o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish tizimi bilan tanishish;

- bolalar shaxsini va o'quvchilar jamoasini psixologik-pedagogik jihatdan o'rganish;

- uslubiy birlashmalar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, fan uyushmalari va ilmiy pedagogik kengashlar ishi bilan tanishish;

- o'quv-tarbiya muassasalariga milliy tarbiya vazifalarini hal etishda yordam ko'rsatish;

- madaniy-ommaviy ishlar orqali talabalarning badiiy havaskorlik to'garaklarida, turli klublarda qatnashishini, madaniy yurishlar, munozaralar, fidoiy kishilar bilan uchrashuvlarini tashkil etish;

- bo'lajak o'qituvchilarning estetik didini tarbiyalash, qobiliyatlarini rivojlantirish, bilim doirasini kengaytirish, o'quvchilar bilan madaniy-ommaviy ishlarni uyushtirish ko'nikmasi bilan qurollantirish.

1.7. Pedagogik amaliyotning tarbiyalovchi xarakteri:

Pedagogik amaliyot o'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashda, yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishdagi mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashda bo'lajak o'qituvchi uchun birinchi jiddiy sinov bo'lib hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy pedagogik fazilatlarining shakllanishida amaliyot davridagi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida mustaqil ishlash ham faol ko'maklashadi. O'z-o'zini tarbiyalash milliy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi va u o'z navbatida, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Noyabr				Dekabr, Yanvar			
1 hafta	2 hafta	3 hafta	4 hafta	1 hafta	2 hafta	3 hafta	4 hafta
Tarbiyaviy tadbir (szenariy) ishlanmasini tuzish. Dars ishlanmasini tuzish va unda tarbiyaviy maqsadni yoritish, o'kazish, darsda ta'lim-tarbiya birligini ta'minlash darajasi va uni tahlil etish. Tarbiyaviy ish rejasi bilan tanishish va tarbiyaviy soatlarni kuzatish.	Tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish qatnashish, uni o'kazish va tahlil etish (szenariy) ishlanmasini tuzish (simga va 1 o'quvchiga), jami 2-ta tavsifnoma G'uruxga raxbarlik qilish va o'quvchilarning tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish qatnashish, uni o'kazish va tahlil etish.	Tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish qatnashish, uni o'kazish va tahlil etish (szenariy) ishlanmasini tuzish (simga va 1 o'quvchiga), jami 2-ta tavsifnoma G'uruxga raxbarlik qilish va o'quvchilarning tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish qatnashish, uni o'kazish va tahlil etish.	Tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish qatnashish, uni o'kazish va tahlil etish (szenariy) ishlanmasini tuzish (simga va 1 o'quvchiga), jami 2-ta tavsifnoma G'uruxga raxbarlik qilish va o'quvchilarning tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish qatnashish, uni o'kazish va tahlil etish.	Tarbiyaviy tadbir (szenariy) ishlanmasini tuzish Tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish qatnashish, uni o'kazish va tahlil etish.	Tarbiyaviy tadbir (szenariy) ishlanmasini tuzish Tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish qatnashish, uni o'kazish va tahlil etish.	Tarbiyaviy tadbir (szenariy) ishlanmasini tuzish Tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish qatnashish, uni o'kazish va tahlil etish.	Tarbiyaviy tadbir (szenariy) ishlanmasini tuzish Tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish qatnashish, uni o'kazish va tahlil etish.
Ta'lim muassasi ma'muriyati bilan tanishish va fan o'qituvchisi sindan tashqari ish tajribasini o'rganish.							
2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5
Ball							
2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5

1.8. Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda quyidagi mahoratlar mustahkamlanadi va rivojlanadi:

- O'quv mashg'ulotlarining dars ishlanmalari va mavzuy rejaralarini ishlab chiqish, amaliyot davomida sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish;
- darslarni mustaqil tayyorlash va o'tkazish, o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish;
- bolalar tarbiyasiga kompleks yondashgan holda turli xil sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- o'qituvchilar, bolalar va ularning ota-onalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni pedagogik maqsadga muvofiq ravishda o'rganish;
- ta'lim muassasalari hujjatlarini olib borish (sinf qaydnomasi), bolalar kundaliklari, daftarlarni tekshirish, ko'rgazmali jihozlar, didaktik materiallar tayyorlash;

- ota-onalar bilan yakka-yakka ish olib borish, ota-onalar faollari bilan ishlash, ota-onalar yig'ilishlarida so'zga chiqish (oilaviy tarbiyaning dolzarb muammolari haqida);
- aholi bilan, turar joylardagi, mahallalardagi bolalar va o'smirlar bilan madaniy-ommaviy ishlar olib borish;
- kurs loyihasini tayyorlashda foydalanish uchun materiallar yig'ish maqsadida pedagogik tajriba yoki ijodiy-tekshiruv ishlarini olib borish;
- amaliyot mobaynida o'qituvchilar va shaxsiy tajribalarni umumlashtirish, tahlil qilish va hokazo.

PSIXOLOGIK TAYORGARLIK – 2-5 ball

Pedagog kadrlarni professional tayyorlash tizimida pedagogik amaliyot muhim ahamiyat kasb etadi. pedagogik amaliyot pedagogika universitetidagi o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, talabalarni professional pedagogik faoliyatning birlamchi tajribalari bilan qurollantiradi.

Pedagogik amaliyot davomida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- ijtimoiy-siyosiy, psixologik-pedagogik va maxsus bilimlarni mustaxkamlash, chuqurlashtirish hamda boyitish, muayyan pedagogik masalalarni hal qilishda ulardan foydalanish;
- bo'lg'usi o'qituvchilarda pedagogik ko'nikma, malaka va shaxsning kasbiy ahamiyatiga ega bo'lgan sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- talabalarda o'qituvchilik kasbiga barqaror qiziqish va muhabbatni, o'z pedagogik malakasini oshirib borishga extiyojni tarbiyalash;
- pedagogik faoliyatga ijodiy yondoshishni tarkib toptirish;
- uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi o'quv-tarbiya ishlarining hozirgi davrdagi ahvoli, ilg'or pedagogik tajribalar bilan tanishish;
- o'quv-tarbiya muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya vazifalarini hal qilishda qatnashish.

Pedagogik amaliyot davomida talaba quyidagi kasbiy-pedagogik ko'nikma va malaka asoslarini egallashi lozim:

- yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashning zamonaviy talabalaridan kelib chiqib, o'quvchilarning yosh, individual, bolalar jamoasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyan o'quv-tarbiyaviy vazifalarni aniqlash;
- o'quvchilarning rivojlanishini va tarbiyasini loyihalashtirish va diagnostika qilish maqsadida o'quvchilar shaxsi va jamoasini o'rganish;
- pedagogik faoliyat (guruhdan tashqari ishlar, o'quvchilarning turli faoliyatlarini) kundalik va istiqbolli rejalashtirishni amalga oshirish;
- o'quvchilarning o'quv va bilish faoliyatlarini boshqarishning turli-tuman shakli va usullarini qo'llash (ta'lim va tarbiya vazifalarini hal qilish, o'quv materialini, ta'limning tashkiliy shakli va usullarini tanlash va ularni qo'llash, ta'limning turli vositalaridan foydalanish);
- o'qituvchilar, guruh rahbarlari, tarbiyachilar, ota-onalar va bolalarni tarbiyalashda ishtirok etuvchi boshqa kishilar bilan hamkorlik qilish;
- o'quv tarbiyaviy ishlarini kuzatish va tahlil qilish, ularni to'g'rilash, psixologik-pedagogik fanlar bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish;
- vujudga kelgan pedagogik holatlarni tahlil qilish, umumiy qonuniyatlarini muayyan

hollarga tadbir etib bilish;

- ota-onalar va mehnat jamoalari orasida psixologik bilimlarni targ'ib qilish.

Pedagogik amaliyot o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faol professional sifatlarini tarkib toptiradi.

pedagogik amaliyot tizimi 4-kurs talabalarining o'quv tarbiyaviy amaliyotini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, amaliyot vazifalarining va talabalar faoliyati mazmunining asta-sekin murakkablashib borishi bilan harakterlanadi.

Talabalar pedagogik amaliyotining turi va muddati pedagogika universitetlarining o'quv rejasida ko'rsatiladi.

4-kurs talabalar pedagogik amaliyotni uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarda o'tkazadilar. Uning mazmuni esa talaba-amaliyotchini o'qituvchining aynan kasbiy faoliyatiga yaqinlashtirishdir.

Psixologiyadan topshiriqlar mazmuniga quyidagilar kiradi:

1. Talabalar pedagogik amaliyot o'tkazadigan guruhida olib boriladigan barcha ishlarni o'rganish.

2. Darsni psixologik tahlil qilish.

3. Akademik guruhga pedagogik-psixologik tavsifnoma tuzish.

4. O'quvchi shaxsini o'rganish va unga psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzish.

pedagogik amaliyot davomida ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish uchun amaliyotchi-talabalar har bir guruhga birlashtirib qo'yiladi. Ular guruh rahbariga yordamchi bo'lib ishlaydilar va o'z matematika, algebra va geometriya fanlari bo'yicha dars beradilar, guruhdan tashqari ishlarni olib boradilar. Talabalar amaliyot davomida quyidagi muhim kasbiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar:

1. Dars va darsdan tashqari vaqtlarda ayrim o'quvchilar va guruh jamoasi ustidan psixologik kuzatishlar kundaligini olib borishni o'rganadi. Kuzatish davomida sezgi, idrok, xotira, tafakkur, hayol, nutq, hissiyot, iroda, temperament, xarakter, qobiliyat, jamoada shaxslararo munosabatlar kabi turli psixik hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini bilib oladi.

2. Hozirgi zamon psixologik metodlardan foydalanib, o'quvchi shaxsini o'rganish va tahlil qilishni bilib oladi.

3. Sxema asosida o'quvchi shaxsiga psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzishni o'rganadi.

4. Psixologik metodlardan foydalanib, guruh jamoasida shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlarini o'rganadi va baholaydi.

5. Psixologik bilimlar va kuzatish natijalaridan foydalanib, dars va guruhdan tashqari tadbirlarni analiz qilishni o'rganadi.

6. O'quvchilarning past o'zlashtirishi va intizomsizligining psixologik-pedagogik sabablarini ochib berishga o'rganadi.

7. O'quvchilar va ularning ota-onalari bilan ma'ruza, suhbat o'tkazish, psixologik maslahatlar berishga o'rganadi. Masalan, «O'quv materialini puxta eslab qolishning psixologik shartlari», «Iroda va harakterni tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash» va hokazolalar.

Talaba amaliyoti davomida o'quvchi shaxsining yosh va individual psixologik xususiyatlarini o'rganadi va shu asosida bir o'quvchiga psixologik-pedagogik tavsifnoma

yozaadi.

Amaliyotchi talaba o'z ixtisosligi bo'yicha har bir darsni yuqori darajada o'tish uchun dars rejasini va uning konspektini yozishi shart.

Amaliyotchi-talabanning o'tkazgan darsi va o'quv-tarbiya mashg'ulotlari hammasi amaliyotchilar, o'qituvchi, metodistlar, amaliyot rahbarlari ishtirokida tahlil va muhokama qilinadi.

Bu muhokama va tahlillar umumiy sxemada, ya'ni umumdidaktik psixologik va metodik tomonlarni birlashtirib amalga oshiriladi.

O'tilgan darsning yoki tarbiyaviy tadbirlarning jamoa tahlili odatda o'z-o'zini baholashdan, o'zining hisobotini tahlil qilishdan, darsdagi holati va pedagogik taktini baholashdan boshlanadi. Bunda pedagog uchun juda zarur sifatlar shakllanadi.

Talabalarni pedagogik amaliyot davomida bajarilgan ishlarini hujjatlashtirish va ularni baholash

1. Talabalar pedagogik amaliyot davomida kundalik daftar tutadilar va bunga psixologiyadan bajarilgan topshiriqlarni yozib qo'yadilar. Amaliyotchi talaba kundalikning «Bajarilgan ishlarining qisqacha mazmuni va taassurotlar» degan jadvaliga ayrim o'quvchilar yoki guruh jamoasi ustidan o'tkazgan kuzatishlari va taassurotlarini yozib boradilar.

Amaliyot davomida bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot yozishda shu kundalik daftardan foydalanadilar.

2. pedagogik amaliyot tugashi arafasida amaliyotchi talaba topshiriq bergan psixologiya kafedrasiga o'qituvchisiga quyidagi xujjatlarni topshiradi:

- a) o'quvchiga yoki guruh jamoasiga tuzilgan psixologik-pedagogik tavsifnoma;
- b) bitta darsning psixologik-pedagogik analizi o'tkazilgan «Dars tahlili bayoni» dan ko'chirma.

Ushbu yozma hujjatlar topshirilgandan keyin talabaga differentsiallangan sinov qo'yiladi. Psixologiya o'qituvchisi qo'ygan baho guruh rahbari tomonidan hisobga olinadi va talabaga amaliyot yuzasidan yakuniy baho chiqariladi.

Talabalarni baholash mezonlari

Maksimal ball - 5 ball, saralash ball - 3 ball

Noyabr		Dekabr, Yanvar		Ball											
1-hafta	Darslarni psixologik tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar bilan tanishtirish. O'quv-tarbiyaviy ishlarini tashkil qilishni o'rganish. Darsdan tashqari ishlarini barcha turlari bilan tanishtirish.	2-hafta	O'z shaxsiy ish rejasini tuzish. O'qituvchilarning shaxs va o'smirlikka xos xususiyatlarini o'rganish. O'quvchilar bilan doimiy mulqot va o'zaro ta'sirni tashkil etish. Kuzatish, suhbat va barcha psixologik metodlarni qo'llash.	3-hafta	Bir o'quvchiga pedagogik-psixologik tavsifnoma tuzish (targetma materiallar).	4-hafta	Guruhga rahbarlik va o'quvchilarni psixologik-pedagogik o'rganish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va o'tkazish.	1-hafta	O'quvchilar bilan doimiy mulqot va o'zaro ta'sirni tashkil etish. Kuzatish, suhbat va barcha psixologik metodlarni qo'llash.	2-hafta	O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi turlar uslublarini qo'llash, turli tipdagi darslarni o'tkazishga talabalarni tayyorlash.	3-hafta	Darslarni o'tkazish, uning muvokamasi. Darsni psixologik tahlil qilish.	4-hafta	Guruhga psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzish. Pedagogik amaliyot davriga oid to'liq hisobot. Vazifalarni to'liq topshirish.
2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5	2-5		

Psixologik vazifalari

1. Pedagogik amaliyot bo'yicha o'tkaziladigan amaliyot oldi va yakuniy anjumanlarda ishtirok etadi.
2. Talabalar o'quvchilar jamoasi va shaxsini o'rganishga, psixologiya bo'yicha topshiriqlarni bajarishga rahbarlik qiladi.
3. Amaliyotchi-talabalarining mutaxassislik fanlaridan o'tkazadigan darslari va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda va ularning tahlillarida tanlab xohlaganiga qatnashadi.
4. Haftada bir kun universitetda maslahat kunini belgilaydi va shu kuni belgilangan soatlarda talabalarining barcha muammoli savollariga javob beradi.
5. Guruh rahbari, metodist, pedagogika kafedrasiga o'qituvchilari va maktab xodimlari bilan birgalikda har bir amaliyotchi talabaning ishini baholaydi.

GIGIENIK TAYORGARLIK - 2-5 ball

1.1. Gigenik tayorgarlik maqsadi va vazifalari. Gigena fani barcha bakalavriat yo'nalishining IV bosqich talabalarining olib boradigan pedagogik amaliyoti uchun mo'ljallangan. Gigena bo'yicha dastur yangi o'quv rejalari muvofiq ishlab chiqildi. Dasturni ishlab chiqishda talabalarining yosh fiziologiyasi va gigenasidan etarli darajada bilimga ega bo'lishlari zarurligi, xamda ajratilgan o'quv yuklamasi hajmi hisobga olingan.

1.2. Talabalar bilimiga qo'yiladigan talablar

Gigiena fani bo'yicha talabalar quyidagi bilimlar bilan qurollangan bo'lishi zarur:

- Ta'lim muassasasi uchun ajratilgan er maydoni, undagi zonalar, ularning tipi, va qerda joylashganligini bilish.
- Sinf xonalarning o'lchamlari, sinf jihozlari, ularning xillarini bilish.
- Fanlar va ularning dars jadvalidagi o'rmini bilish.
- O'quvchilar ishanlik qobiliyatini bilish.
- O'quvchilar kun tartibini baholay olish.

1.3. Gigienik tayorgarlikning boshqa fanlar bilan aloqasi

Gigiena fani yosh fiziologiyasi, pedagogika, psixologiya va maktab, litseydagi barcha fanlar bilan bog'langan.

1.4. Gigienik tayorgarlikdan o'qitilishda qo'llaniladigan vositalar

Bu fandan amaliy topshiriqni bajarishda yangi pedagogik innovatsion texnologiyalar usullaridan foydalaniladi.

1.5. Umumiy o'quv ishlari bo'yicha hajmi.

Barcha bakalavriat 4- bosqich bituvchi kurs talabalari pedagogik amaliyotida gigiena fanidan amaliy topshiriq bajaradilar. U oltita topshiriqdan iborat.

Gigienik tayorgarlikdan reyting jadvali

Maksimal ball – 5 ball
Saratlash ball 3 ball

Agar talaba shu talablarga to'liq javob bera olsa, baholash tartibi bo'yicha bahoni tashkil etadi.

Agar talaba yuqoridagi talablarga yaxshi javob bera olsa, baholash tartibi bo'yicha 4 bahoni tashkil etadi.

Pedagogik amaliyot jarayonidagi tashkiliy ishlarning taxminiy rejayi

1. Tashkiliy ishlar:

t/r	Ishning nomi	Mas'ul	Izoh
1	«Kimyo» fani mutaxassislari uchun pedagogik amaliyot rahbari amaliyot etib tayinlangan ta'lim muassasalari bilan shartnoma tuzadi.	dekanat, kafedra	
2	Pedagogika amaliyotini o'tkazishga bag'ishlangan anjumanida kafedra tayinlangan pedagogik amaliyot rahbari va guruh talabalarining ishtirokini ta'minlash.	kafedra mudiri, dekanat	
3	Amaliyot ob'ektlarida amaliyot rahbari barcha o'quv, uslubiy tayyorgarlikni ta'minlaydi	amaliyot rahbari	
4	Talabalarni amaliyot ob'ektlariga boshqarib, kelishda texnika havfsizligi qoidalarini bilib olish.	guruh rahbari, amaliyot rahbari, fakultet o'quv ishlari bo'limi	

5	Amaliyot ob'ektlarida talabalar uchun sharoit yaratish (xona, ish stoli, o'quv jihozlari va boshqalarni saqlaydigan shkat va boshqalar).	amaliyot rahbari, amaliyot ob'ekti rahbariyati
6	Talabalarni sinflarga taqsimlash.	amaliyot rahbari, fan o'qituvchilari
7	Talabalarni fan o'qituvchilariga birlashtirish.	amaliyot rahbari
8	Talabalar bilan doimiy aloqada bo'lish uchun kat'iy, belgilangan reja ega bo'lish.	amaliyot rahbari, guruh boshlig'i
9	Amaliyot davrida amaliyot ob'ekti rahbariyati, uning ma'naviyat ishlari bo'yicha o'rinsosari, fan o'qituvchilari faoliyati bilan tanishtirishga erishish.	amaliyot rahbari
10	Amaliyot ob'ektlarining o'quv bazasi, o'quv uslubiy pedagogik kengashi, uslubiy bo'limlar ish faoliyatlarini bilan ta'minlash.	guruh boshlig'i, fan o'qituvchilari bo'limi.
11	Talabalarni sinf rahbari ish rejasi asosida ish yuritishga o'rgatish, ota-onalar majlislarida faol ishtirok qilib ishlarni ta'minlash.	amaliyot rahbari sinf rahbari
12	Talabalarni amaliyot ob'ektlaridagi yangi texnologiya usullari bilan tanishtirish.	amaliyot rahbari
13	Talabalar navbatchiligini tashkil etish.	amaliyot rahbari, guruh boshlig'i
14	Amaliyot ob'ektlarida o'tkaziladigan barcha tadbirlarda amaliyotchi talabalarining faol ishtirokini ta'minlash.	amaliyot rahbari guruh boshlig'i
15	Amaliyot ob'ektlarida mavjud "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" yoshlar ijtimoiy harakati ishlarni yanada jonlamishi uchun amaliyotchilarni jalb qilish.	amaliyot rahbari "Yoshlar ittifoqi"

2. Metodik va ilmiy ishlar:

No	Ishning nomi	Mas'ul	Izoh
1	Amaliyot ob'ektlaridagi amaliy matematika fanlari o'qituvchilari darslanga kirishni tashkil qilish xamda dars yakunida uni amaliyotchi talabalar bilan muhokamasini uyushtirish.	amaliyot rahbari, guruh boshlig'i, fan o'qituvchilari	
2	Sinfdan tashqari turli mavzularda tadbirlar tashkil etish va unda amaliyotchi talabalarining tashkilotchi sifatida ishtirokini ta'minlash.	amaliyot rahbari, guruh boshlig'i, sinf rahbari.	
3	Amaliyot ob'ektlarining o'ziga xosligini xisobga olib, amaliyotchi talabalarda konspekt yozish, darsga tayyorgarlik ko'rish haqida subbatlar tashkil etish.	amaliyot rahbari, guruh boshlig'i	
4	Amaliyotchi talabalarining o'zaro darsga kirishlarini tashkil etish, bu darslarni ta'lim qilish	amaliyot rahbari, fan o'qituvchisi	

5	Amaliyot talabalarining darslarini bevosita kuzatish va zarur maslahatlar berish	amaliyot rahbari, fan o'qituvchisi
6	Amaliyotchi talabalarining darslariga nkafedra, fakultet, universitetning ustozlarini kirishini tashkil qilish hamda mazkur darsni ular ishtirokida muhokama qilish.	amaliyot rahbari, kafedra o'qituvchilari dekanat vakili
7	Ulug'movchi amaliyotchi talabalar bilan ishlash.	amaliyot rahbari, kafedra o'qituvchilari
8	Konsultatsiyalar tashkil etish	amaliyot rahbari, guruh boshlig'i
9	Amaliyotchi talabalar darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlardagi faoliyatlarini muntazam nazorat qilib, ularga yaqindan yordam berish.	amaliyot rahbari, fakultet rahbariyati
10	Amaliyot yakunida amaliyotchi talabalar bilan o'zlarini o'rganish mavzularida tayyorlangan o'quv ko'rgazmali jihozlari konkursini tashkil etish.	amaliyot rahbari
11	Pedagogik amaliyot yakuniga bag'ishlangan amaliyot ob'ektlaridagi anjumanda ishtirok etish.	amaliyot rahbari, guruh boshlig'i
12	Pedagogik amaliyot yakuniga bag'ishlangan universitetdagi anjumanda barcha amaliyotchi talabalarining ishtirokimi taminlash.	amaliyot rahbari, guruh boshlig'i, fakultet rahbariyati.

Bitiruvchi kurs talabalarining pedagogik amaliyotida guruh rahbarining ish rejasi:

1. Tashkiliy ishlar:

1. Universitetda pedagogik amaliyotga bag'ishlangan anjumanlarga bitiruvchi talabalarini jalb qilish, yig'ilishda ishtirokimi ta'minlash.
2. Universitet bilan pedagogik amaliyot ob'ektlari bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari ma'muriyati tomonidan shartnomalar tuzishni tashkillashtirish.
3. Pedagogik amaliyot o'tash uchun birlashtirilgan amaliyot ob'ekti fan o'qituvchilari hamda dars o'tiladigan guruh bilan amaliyotchi talabalarini tanishtirish.
4. Amaliyotchi talabalarining pedagogik amaliyot ob'ektidagi informatika va matematika fanlari o'qituvchilarining darslariga kirish rejasini ishlab chiqish.
5. Amaliyotchi talabalarini amaliyotda faol ishtirokimi muntazam nazorat qilish har haftalik hisobotini ko'rib borish.
6. pedagogik amaliyotning har bir oyi yakunida amaliyotning borishi to'g'risida kafedraga hisobot berish.

2. Ilmiy uslubiy ishlar:

1. Amaliyotchi talabalariga dars o'tishni tashkillashtirish, ma'ruza matnlarini tayyorlash tartibi, seminar mashg'ulotlarini o'tishning qonun-qoidalarini, har bir ma'ruzani o'tish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qanday qo'llash yuzasidan metodologik tavsiyalar berish.
2. Amaliyotchi talabalariga ko'rgazmali jihozlardan foydalanish yo'llarini ko'rsatish.
3. Amaliyotchi talabalarining pedagogik amaliyot ob'ektidagi fan o'qituvchilari

darslariga kirganlarini, dars to'g'risidagi fikr-muloxazalarini muhokama qilishni tashkillashtirish.

4. Amaliyotchi talabalarni o'zaro darslarga kirishlari rejasini tayyorlash va uni tasdiqlash.
5. Amaliyotchi talabalarining reja asosida bir-birlarining darslariga kirganlarini muhokamasini tashkil etish.
6. Pedagogik amaliyot ob'ektlarida Konstitutsiya kumiga bag'ishlangan tadbiri amaliyotchi talabalar yordamida tashkillashtirishga va o'tkazishga erishish.
7. Amaliyotchi talabalarga birlashtirilgan sinflardagi devoriy gazetalarning mazmunli va dolzarb masalalar yoritilishini ta'minlash. Amaliyotchi talabalarining pedagogik amaliyot ob'ektlarida o'tadigan darslariga kafedra, fakultet o'qituvchilarining kirishini ta'minlash va mazkur o'tilgan darsning muhokamasini o'tkazish.
8. Amaliyotchi talabalarga amaliyot yakuni munosabati bilan tavsifnoma berishda hamda baholashda bevosita ishtirok etish.
9. O'z guruhi to'g'risida amaliyot yakunida hisobot tayyorlash hamda uni kafedraga va pedagogik amaliyotning umumiy rahbariga taqdim etish.

3. Ma'naviy-marifiy ishlar:

1. Amaliyotchi talabalarni ob'ektlardagi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati bilan hamkorligini yo'lga qo'yish.
2. Amaliyotchi talabalar bilan o'qituvchining dars o'tishdagi mas'uliyati, o'zini tutishi, kiynish madaniyati, muomala madaniyati mavzularida suxbatlar tashkil etish.

Pedagogik amaliyotda talaba majburiyatlari:

1. pedagogik amaliyot ob'ektlariga borishdan avval dekanat, kafedraga kirib, amaliyot davomida qanday materiallarni bilishi va bu borada nimalar qilishi kerakligi to'g'risida ko'rsatmalar olishi shart.
2. Universitetdan birlashtirilgan rahbar bilan uchrashib, tashkiliy masalalarni olishi zarur.
3. pedagogik amaliyotga oid "Kundalik daftar", "Eslatma" kabi zarur hujjatlarni olishi lozim.
4. pedagogik amaliyotni o'tashga universitet tomonidan belgilangan (rektor buyrug'iga asosan) joyga borishi shart.
5. Amaliyot o'tkaziladigan ob'ektlarda belgilangan mehnat intizomiga va ichki tartib qoidalariga qat'iy rioya etishi lozim.
6. Amaliyot darslarini o'tish bo'yicha "Kundalik daftar" ni shaxsan har kuni bajarilgan ishlar va o'tkazilgan tadbirlarning qisqacha mazmunini yozib, rahbarga ko'rsatib, tasdiqlatish shart.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonidan kelib chiqib, joylarda pedagogik amaliyot o'tish ob'ektlari mehnat jamoalari, mahalla milliy g'oyaning mazmun - mohiyati, ahamiyati bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarida faol qatnashish, suxbatlar, uchrashuvlarda ishtirok etib, ularni hisobotda qayd etishlari shart.
8. pedagogik amaliyot tugashi bilan to'liq rasmiylashtirilgan "Kundalik daftar" ni universitetdan tayinlangan rahbarga taqdim etishlari zarur.

I. Asqarov, M. Boxodirova, K. G'opirov tomonidan tayyorlangan "Kimyodan masala va mashqlar yechish usullari"

4

Pedagogik amaliyot davrida talabalarni baholash mezonlari:

T/R	Fanlar nomi	1 oy 5 ball	2oy 5 ball	Yakuniy o'rta 5 ball
1	Kimyo	2-5	2-5	2-5
4	Pedagogik tayorgarlik	2-5	2-5	2-5
5	Psixologik tayorgarlik	2-5	2-5	2-5
6	Gigienik tayorgarlik	2-5	2-5	2-5
	Jami	2-5	2-5	2-5

Izoh: Pedagogik amaliyotda:

Mutaxassislik fanlariga 60%,
Pedagogik tayorgarlikka 25%,
Psixologik tayorgarlikka 10%,
Gigienik tayorgarlikka 5% soat ajratiladi.

Pedagogik amaliyot ishchi dasturi uchun adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" - T.: "O'zbekiston" - 2017.
2. I.A. Karimov. "O'zbekiston buyuk kelajak sari". O'zbekiston. Toshkent, 2001 y.
3. O'zbekiston respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". O'zbekiston. Toshkent, 1997 y.
4. R. Mavlonova, N. Vohidova, N. Rahmatullaeva "Pedagogika nazariyasi va tarixi". Toshkent, 2010.
5. Mavlonova R.A., Normuradova B. «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» T., «Fan», 2010 y.
6. Q.Sodiqov «O'quvchilar fiziologiyasi va gigienasi» T., «O'qituvchi», 1992.
7. I.R. Asqarov, N.X. To'xtaboyev, K.G'opirov "Kimyo" Umumiy o'rta ta'lim maktablari-ning 7-sinfi uchun darslik "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent -2013 y.
8. I.R. Asqarov, N.X. To'xtaboyev, K.G'opirov "Kimyo" Umumiy o'rta ta'lim maktablari-ning 8-sinfi uchun darslik Toshkent "Yangiyo'l poligraf service" 2010 y.
9. I.R. Asqarov, N.X. To'xtaboyev, K.G'opirov "Kimyo" Umumiy o'rta ta'lim maktablari-ning 8-sinfi uchun darslik "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2010 y.

1
0
1
1

Qo'shimcha adabiyotlar

1
2

A Mutallibov 11-sinflar uchun "Kimyodan masalalar yechish usullari" qo'llanmasi

qo'llanma uchun foydalanilgan adabiyotlarning ma'lumotli ro'yxati amaliyoti bo'yicha metodist o'qituvchilarning 2021-2022 o'quv yili uchun ISH REJASI

Nö	Ish mazmuni	vaqti	Ajratilgan soat
1.	Amaliyotga bag'ishlangan anjumanni tashkil etish. Talabalarni pedagogik amaliyotning maqsadi va vazifasi bilan tanishtirish.	Sentabr	
2.	Talabalarni maktab ma'muriyati bilan tanishtirish. Maktab tartib-qoidalari haqida ma'lumot berish. Talabalarni sinflarga taqsimlash, maktab o'qituvchilariga birlashtirish.	Sentabr	
3.	Kimyo fanlarining taqvim rejalarini bilan tanishtirish, yozib olishlarini ta'minlash.	Sentabr	
4.	7-sinfda kimyo darslarini kuzatish, tahlil qilish	Sentabr	
5.	8-sinfda kimyo va boshqa darslarini kuzatish, tahlil qilish	Sentabr	
6.	9-10-11 sinflarda kimyo va boshqa darslarini kuzatish va tahlil qilish	Sentabr	
7.	Talabalar tayyorlashi lozim bo'lgan hujjatlarini tekshirish.	ped.amaliyot davrida	
8.	Kimyo, darslari uchun ko'rgazmalar tayyorlashi yuzasidan maslahatlar berish.	ped.amaliyot davrida	
9.	Tarqatma materiallar tayyorlash va ulardan dars jarayonida foydalanish haqida maslahatlar berish.	ped.amaliyot davrida	
10.	Bir soatlik informatika darsining reja konspektini tuzish.	Sentabr - Oktabr	
11.	Bir soatlik kimyo darsining tahlili haqida maslahatlar berish	Oktabr	
12.	To'g'arak darslarini tashkil qilish haqida maslahatlar berish	ped.amaliyot davrida	
13.	"Kimyo kechalarini o'tkazishga yordam va maslahatlar berish	Noyabr	
14.	"Pedagogik amaliyot muammolari" mavzusida suhbat uyushtirish	Sentabr - Oktabr	
15.	Talabalar darslarini kuzatish va tahlil qilish	ped.amaliyot davrida	
16.	Yangi pedagogik texnologiya talablari asosida darslarni tashkil qilish yuzasidan maslahatlar berish	ped.amaliyot davrida	
17.	O'quvchilarga individual yondashish haqida maslahatlar berish.	Sentabr - Oktabr	
18.	Sinov darslarini kuzatish va baholash	Oktabr - Noyabr	
19.	Sinov darslarini muvaffaqiyatli o'tishlari uchun metodik ko'rsatmalar berish	Noyabr	
20.	Darsda beriladigan mustaqil ishlar va ularning o'rni samarasi haqida suhbat	Noyabr	
21.	O'quvchilar bilimini tekshirish, baholash usullari (test, bayon, insho, suhbat, diktant) haqida maslahatlar berish	Oktabr - Noyabr	
22.	Reyting usulida baholash va uning samarasi haqida suhbat	ped.amaliyot davrida	
23.	Talabalar amaliyot hujjatlarini yuritishlarini tekshirib borish	ped.amaliyot davrida	

24.	Talabalarining o'zaro tajriba almashish maqsadida dars kuzatishlarini nazorat qilish	ped.amaliyot davrida
25.	Talabalarining ped.amaliyot hujjatlarini tekshirib qabul qilish	ped.amaliyot davrida
26.	Amaliyot yakuniga bag'ishlangan prezentatsiyasiga tayyorlanish va o'tkazish.	Noyabr
	Jami	

Amaliyotchi quyidagi tartibda hisobot yozishi lozim.

Termiz davlat universiteti _____ fakultetining _____ bosqich talabasi _____ ning pedagogik amaliyot yuzasidan
HISOBOTI.

1. Hisobot butun pedagogik amaliyot davrini o'z ichiga olishi kerak.
2. Uzlaksiz pedagogik amaliyotni qayerda (maktab raqami va manzili), qaysi sinflarda, qaysi fanlarda o'tganligi hamda boshlangan, tamom bo'lgan vaqti va quyidagi reja asosida yoziladi:

- 1) kuzatish amaliyoti
- 2) faol amaliyot
- 3) o'quv-tahlil, sinf rahbarlik ishlari
- 4) sinfdan va maktabdan tashqari ishlar
- 5) o'quvchilarga psixologik tavsifnoma
- 6) ota-onalar bilan qilingan ishlar
- 7) amaliyot davrida qilingan tashkiliy ishlar
- 8) amaliyot davridagi yutuqlar
- 9) amaliyot davrida uchragan qiyinchiliklar
- 10) amaliyot jarayonida o'quvchilar bilan turli tadbirlar, kechalar, mushoiralar o'tkazish
- 11) imzo qo'yiladi va yozilgan vaqt ko'rsatiladi.